



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 206 sahifa,  
16-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati .....	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati .....	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi .....	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi .....	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari ....	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi .....	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri .....	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes .....	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish .....	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi .....	58
<i>Po'latova Sitora Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari .....	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari .....	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari .....	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish .....	91
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi</i>	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi .....	96
<i>Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.</i>	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi ....	101
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili .....	104
<i>Allanov Shuxrat Qilichovich</i>	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari .....	108
<i>Fayziyev Baxodir Baxshilloevich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish .....	112
<i>Imamova Nilufar Zabiylulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari .....	116
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash .....	119
<i>Eshonqulova Ma'suda Habibovna</i>	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar .....	123
<i>Islomova Ozoda Isomiddin qizi</i>	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi .....	127
<i>Abdullayeva Maftuna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati .....	131
<i>Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi</i>	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish .....	135
<i>Axmadova Malika</i>	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida) .....	139
<i>Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li</i>	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari .....	143
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati .....	146
<i>D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida) .....	150
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish .....	154
<i>G'. Yu. Eshmirzayev</i>	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari .....	157
<i>Kamolova Nargiza Ibragimovna</i>	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari ....	161
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili .....	167
<i>Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida .....	171
<i>Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari .....	177
<i>Raximova Nigora Atakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
<i>Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna</i>	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili .....	184
<i>Xolmurotova Mahbuba Maxmudovna</i>	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari .....	189
<a href="#">Yarmatova Sanobar Jo'rayevna</a>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar .....	193
<a href="#">Norquvatova Diyora Davron qizi</a>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	197
<a href="#">Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</a>	
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих .....	201
<a href="#">Зохилов Нодирбек Улугбекович</a>	



# O'SMIRLARDA KOPING XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIDA OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yarmatova Sanobar Jo'rayevna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'smirlik davrida koping xulq-atvorining shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Oilaviy munosabatlarning tarixiy-madaniy evolyutsiyasi, zamonaviy o'zbek oilalaridagi o'ziga xos jihatlar hamda turli tarbiya uslublarining (avtoritar, liberal, demokratik va aralash) o'smir psixikasiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilangan me'yorlarning bola shaxsiy rivojlanishidagi psixologik ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-ona bilan sog'lom, demokratik va emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar o'smirlarda konstruktiv koping strategiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi, nosog'lom yoki nomuvozanatli munosabatlar esa dezadaptiv xulq-atvor mexanizmlarini kuchaytirishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** o'smirlik davri, koping xulq-atvori, oilaviy munosabatlar, tarbiya uslublari, psixologik rivojlanish, ota-ona va farzand munosabatlari, emotsional qo'llab-quvvatlash, ijtimoiylashuv.

**Abstract:** This article provides a systematic analysis of the psychological characteristics of parent-child relationships in the formation of coping behavior among adolescents. It examines the historical and cultural evolution of family relationships, the specific features of modern Uzbek families, and the impact of different parenting styles (authoritarian, permissive, democratic, and mixed) on adolescent psychological development. Special attention is given to the psychological significance of legal norms defined in the Family Code of the Republic of Uzbekistan in ensuring a child's well-being. The findings indicate that supportive, democratic, and emotionally responsive family relationships promote the development of adaptive coping strategies, whereas inconsistent or dysfunctional relationships may contribute to maladaptive coping mechanisms.

**Key words:** adolescence, coping behavior, family relationships, parenting styles, psychological development, parent-child interaction, emotional support, socialization.

**Аннотация:** В данной статье системно проанализированы психологические особенности взаимоотношений между родителями и детьми в формировании копинг-поведения у подростков. Рассматриваются историко-культурные трансформации семейных отношений, специфика современных узбекских семей, а также влияние различных стилей воспитания (авторитарного, либерального, демократического и смешанного) на психическое развитие подростков. Особое внимание уделено психологическому значению норм, закреплённых в Семейном кодексе Республики Узбекистан, в обеспечении благополучного развития личности ребёнка. Результаты исследования показывают, что конструктивные, эмоционально поддерживающие и демократичные отношения в семье способствуют формированию адаптивных копинг-стратегий, тогда как дисгармоничные отношения могут приводить к развитию дезадаптивных моделей поведения.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, копинг-поведение, семейные отношения, стили воспитания, психологическое развитие, взаимоотношения родителей и детей, эмоциональная поддержка, социализация.

## KIRISH

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, inson kamoloti va tarbiyasining boshlang'ich maskani hisoblanadi. Oila va nikohning shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri, ayniqsa bizning ijtimoiy-madaniy sharoitimizda, farzand tug'ilishi bilan bog'liqdir. Farzandsiz er-xotin munosabatlarini, umuman olganda, oilaviy tizimni to'liq tasavvur qilish qiyin. Oila poydevorini tashkil etuvchi asosiy tayanchlar ota va ona bo'lib, ularning o'zaro hurmati, sadoqati, sabr-toqati va ma'naviy pokligi farzand tarbiyasi hamda oilaning barqarorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, insoniyat tarixida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar muayyan bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini bosib o'tgan. Tarixiy tahlillar shundan dalolat beradiki, dastlabki davrlarda ota-onaning bolaga nisbatan munosabati ko'proq egalik va hukmronlik xarakteriga ega bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu munosabatlar asta-sekin insonparvarlik yo'nalishiga o'zgarib borgan. Ya'ni bolaga nisbatan munosabat uning ehtiyojlari bilan hisoblashish, individual xususiyatlarini inobatga olish hamda unga keng qamrovli g'amxo'rlik ko'rsatish darajasigacha rivojlangan.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olimlarning ta'kidlashicha, antik davrlarda erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar natijasida farzand tug'ilgan taqdirda, unga nisbatan befarq munosabat, ya'ni infantitsid holatlari kuzatilgan. Bunday munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo'lib, bolani dunyoga keltirgan shaxslar uchun uning nasl-nasabi va taqdiri muhim ahamiyat kasb etmagan. Keyingi davrlarda esa ushbu munosabatlar tubdan o'zgargan. Insonda o'ziga tegishli narsalarga nisbatan egalik hissining shakllanishi va rivojlanishi o'z zurriyodiga bo'lgan munosabatlarda ham o'z aksini topgan <sup>[2]</sup>.

Mulkchilik shakllarining o'zgarishi va turmush tarzining evolyutsiyasi kattalarning bolalarga nisbatan hissiy munosabatlarining ham o'zgarishiga olib kelgan. Xususan, XIX asr boshlaridan XX asr o'rtalariga kelib, ota-onalar farzandlarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiylashuviga alohida e'tibor qaratishni boshlaganlar. Keyingi davrlarda esa bolalarning taqdiri, ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlanishiga ko'maklashishning ahamiyati yanada chuqurroq anglab yetilgan. Ushbu tendensiya hozirgi davrda ham davom etib, farzandga e'tibor oilaviy qadriyatlarining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shu bilan birga, bunday g'amxo'rlik psixologiyasi ham madaniy-tarixiy o'ziga xoslikka ega.

Masalan, ayrim xalqlarda bolaga kichik yoshda yuqori darajada mehr va e'tibor ko'rsatiladi, o'smirlik davridan boshlab esa uning mustaqilligi tan olinadi va tarbiya uslublari mos ravishda o'zgartiriladi. Boshqa madaniy hududlarda esa, aksincha, bola ulg'aygan sari ota-onaning nazorati va e'tibori kuchayadi. Osiyo xalqlarida, xususan, o'zbek oilalarida ham oila kattaligi va serfarzandlik tufayli bolalarning erta rivojlanish bosqichlariga nisbatan munosabat nisbatan tabiiy qabul qilinadi va ularning ma'naviy-ruhiy rivojlanishiga doim ham yetarli darajada e'tibor qaratilavermaydi. Biroq bola ulg'ayib, ijtimoiy faol bo'la boshlagani sari ota-onaning unga nisbatan g'ururi, e'tibori va g'amxo'rliqi ortib boradi. Ba'zan bu g'amxo'rlik haddan tashqari nazorat shaklini olib, hatto voyaga yetgan farzandlar hayotiga aralashuv darajasiga yetadi. Bu esa qaynona-kelin yoki ota-o'g'il munosabatlarida taranglik va nizolarga sabab bo'lishi mumkin <sup>[3]</sup>.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik mazmuni faqatgina g'amxo'rlik yoki moddiy ta'minot bilan chegaralanmasligi ayon bo'ladi. Ota-onaning bolaga nisbatan hissiy munosabati, uning ehtiyojlarini anglash darajasi, chegaralarni belgilash uslubi, jazolash va rag'batlantirish mexanizmlari hamda bolani mustaqil shaxs sifatida qabul qilishi uning psixik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona farzandini qanday idrok etsa - masalan, itoatkor sub'yekt, "o'zini oqlashi lozim bo'lgan sarmoya" yoki mustaqil shaxs sifatida - bola ham o'ziga, atrofdagilarga va hayotga nisbatan shunga mos munosabatlarni shakllantiradi. Shu bois ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatni o'ziga xos psixologik maktab sifatida talqin qilish mumkin. Bu maktabda bola nafaqat axloqiy me'yorlarni, balki ishonch, sevgi, o'zini himoya qilish va nizolarni hal etish ko'nikmalarini ham egallaydi.

Zamonaviy o'zbek oilalarida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat ko'pincha ikki qarama-qarshi qutb orasida shakllanadi. Bir tomondan, bolaga nisbatan ortiqcha g'amxo'rlik, nazorat va aralashuv kuzatilsa, ikkinchi tomondan uning ichki kechinmalari, hissiyotlari va shaxsiy fikrlariga yetarli e'tibor berilmasligi holatlari uchraydi. Ba'zan ota-onalar farzandni moddiy jihatdan to'liq ta'minlagan holda, uning asosiy psixologik ehtiyojlari - tinglanish, tushunilish va qadrlanish ehtiyojlarini e'tibordan chetda qoldiradilar. Natijada tashqi sharoitlar yetarli bo'lsa-da, ichki jihatdan bo'sh, o'zini qadrsiz his qiluvchi yoki hissiy jihatdan sovuqlashgan o'smirlar shakllanishi mumkin. Bu esa keyinchalik koping xulq-atvorida dezadaptiv shakllar - qochish, inkor etish, agresiya yoki o'zini ayblash kabi mexanizmlarning ustunlashuviga olib keladi.

Ota-ona va farzand munosabatlarini tahlil qilishda faqat tarixiy yoki individual omillar bilan cheklanib bo'lmaydi. Zamonaviy jamiyatda bu munosabatlar nafaqat axloqiy, balki huquqiy me'yorlar orqali ham tartibga solinadi. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ota-ona va bola munosabatlarining asosiy psixologik tamoyillari huquqiy shaklda ifodalangan.

Xususan, Oila kodeksining 65-moddasida bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, u bolaning ota-onasi bilan yashash, ularning g'amxo'rligidan foydalanish va har tomonlama rivojlanish huquqini kafolatlaydi <sup>[1]</sup>. Ushbu norma bolada bazaviy xavfsizlik hissi - ya'ni "men yolg'iz emasman" degan ichki ishonchning shakllanishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar ham barqaror oilaviy muhitda voyaga yetgan bolalarda ishonch va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo'lishini ko'rsatadi.



Shuningdek, Oila kodeksining 68-moddasida bolaning o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi belgilangan <sup>[1]</sup>. Bu esa bola shaxsining sub'yekt sifatida tan olinayotganini bildiradi. Ilmiy adabiyotlarda demokratik tarbiya uslubi doirasida bolaning fikrini inobatga olish, uni eshitish va qo'llab-quvvatlash o'smirda mustaqillik, ichki nazorat va mas'uliyat hissini rivojlantirishi ta'kidlanadi. Amaliy kuzatishlar ham shuni ko'rsatadiki, ota-onasi bilan erkin muloqot qila oladigan farzandlar konstruktiv koping strategiyalarini muvaffaqiyatli qo'llashga moyil bo'ladilar.

Mazkur munosabatlarning mohiyatini chuqurroq anglash uchun tarbiya tushunchasiga ham e'tibor qaratish zarur. Tarbiya - bu shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda to'laqonli yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi <sup>[3]</sup>. Tarbiya insoniyat taraqqiyotining uzviy qismi bo'lib, avlodlararo qadriyatlar uzluksizligini ta'minlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda tarbiya keng va tor ma'nolarda talqin etiladi. Keng ma'noda u shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy omillar majmuini anglatadi, tor ma'noda esa shaxsning ma'lum sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus faoliyatni ifodalaydi <sup>[22]</sup>.

Tarbiya uslublari nuqtai nazaridan akademik A. Shoumarov oilalarni avtoritar, liberal, demokratik va aralash turlarga ajratadi <sup>[2]</sup>. Ushbu tasnifni ota-onaning bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini tahlil qilishda ham qo'llash mumkin. Avtoritar tarbiya qat'iy nazorat va talablar bilan, liberal tarbiya esa erkinlik va past nazorat bilan tavsiflanadi. Demokratik tarbiya esa nazorat va erkinlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Aralash tarbiya esa izchillikning yo'qligi bilan ajralib turadi.

Oila tarbiyasi masalasida bir qator olimlarning qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. K. D. Ushinskiy oilani tarbiyaning asosiy manbai sifatida baholagan bo'lsa, L. S. Vigotskiy bola ijtimoiylashuvda oilaning hal qiluvchi rolini ta'kidlagan.

A. S. Makarenko esa to'g'ri tashkil etilgan oilaviy tarbiyaning jamiyat rivojidagi ahamiyatini asoslab bergan.

E. G'. G'oziyev oiladagi psixologik muhitning bola rivojiga ta'sirini ilmiy jihatdan yoritgan, A. Shoumarov esa demokratik munosabatlarning shaxs mustaqilligini rivojlantirishdagi rolini alohida ta'kidlagan <sup>[28]</sup>. Shuningdek, xorijiy va MDH olimlari tomonidan ham oila va shaxs rivoji o'rtasidagi bog'liqlik keng ko'lamda o'rganilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa va kuzatish metodlaridan, shuningdek, J. Piaje va I. S. Kon tomonidan ishlab chiqilgan "Ota-onalarning o'smir yoshli farzandini tushunish" testi, A. Varga hamda B. Stolin tomonidan yaratilgan "Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati" test-so'rovnomasi, R. Lazarus va S. Folkman tomonidan 1988-yilda ishlab chiqilgan hamda 2004-yilda T. L. Kryukova, Ye. V. Kufiyak va M. S. Zamishlyayeva tomonidan moslashtirilgan "Lazarus koping testi"dan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Avtoritar tarbiya uslubi tashqi tomondan qaraganda o'ta tartibli va izchil ko'rinadi. Bunday oilalarda bola ko'pincha gap qaytarmaydigan, intizomli, ota-onadan cho'chib turadigan tarzda ulg'ayadi. Dastlab bu holat salbiy natija sifatida baholanmasligi mumkin, aksincha ayrim vaziyatlarda intizomlilik, mas'uliyat va talablarni tez bajarish kabi ijobiy sifatlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, avtoritar tarbiya o'smirda koping xulq-atvorining ayrim tashqi elementlarini, xususan, bosimga tezkor javob berish va vaziyatga tez reaksiya qilish ko'nikmalarini kuchaytirishi mumkin. Biroq muhim savol yuzaga keladi: o'smir muammoni anglab, mustaqil ravishda unga munosabat bildirishni o'rganadimi yoki faqat jazodan qochish maqsadida reaksiya bildiradimi? Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, avtoritar uslub ko'proq ikkinchi yo'nalishni, ya'ni qo'rquv, bosim va jazodan qochish kabi motivlarni kuchaytiradi. Xorijiy tadqiqotlarda ham ota-onaning qattiqqo'lligi, doimiy nazorat va bolani qo'rquv ostida ushlab turish uning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan <sup>[2]</sup>.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, avtoritar oilalarda o'smir muammoning o'ziga emas, avvalo ota-onaning ehtimoliy reaksiyasi yoki kayfiyatiga e'tibor qaratadi. Ya'ni u muammoli vaziyatda "nima sodir bo'ldi?" degan savoldan ko'ra "uydagilar bilsa nima bo'ladi?" degan ichki savol bilan yashaydi. Aynan shu nuqtada koping xulq-atvori salbiy yo'nalishga buriladi. Masalan, o'smir maktabda past baho olsa, tengdoshlari bilan nizoga kirishsa yoki muayyan xatoga yo'l qo'ysa, muammoni ochiq muhokama qilish o'rniga uni yashirishga, inkor etishga yoki vaziyatdan qochishga moyillik namoyon etadi. Avtoritar tarbiya ayrim jihatlarida, masalan, tashqi stressga chidamlilikni oshirishi mumkin. Biroq bu chidamlilik ko'pincha sog'lom hissiy regulyatsiyaga emas, balki bolalikdan bosim ostida yashash natijasida shakllangan ichki zo'riqishga asoslanadi. Natijada o'smir o'z his-tuyg'ularini ichiga yutadi, ochiq ifoda etmaydi; ba'zan ota-onaga qarshi chiqmaydi, biroq tengdoshlari orasida keskin va agressiv xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin. Demak, avtoritar tarbiya kopingni shakllantiradi, ammo uni ko'proq himoyaviy, rigid va moslashuvchan bo'lmagan shaklda rivojlantiradi.

Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda yana bir muhim jihat hissiy bog'lanish va psixologik chegaralarning uyg'unligidir. Ayrim oilalarda ota-onaning mehr-muhabbati haddan tashqari yaqinlik shaklida namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda bola barcha qarorlarini ota-onaga bog'lab qabul qilishga odatlanadi va mustaqil tanlov qilishdan qo'rqadi. Boshqa holatlarda esa ota-onalar farzandni "endi katta bo'ldi" degan qarash bilan, ayniqsa o'smirlik davridan keyin, deyarli nazoratsiz va hissiy qo'llab-quvvatlashsiz qoldiradilar. Har ikkala holatda ham sog'lom psixologik rivojlanish uchun zarur bo'lgan muvozanat buziladi. Shu bois, ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom munosabat modeli bir vaqtning o'zida hissiy yaqinlik va aniq chegaralarning uyg'unligini talab etadi. Ya'ni bola sevib-qadrlanishi, biroq uning shaxsiy hayoti, tanlovi va mas'uliyati ham tan olinishi lozim.

O'zbek oilalarida kuzatilayotgan yana bir dolzarb muammo - bu avlodlararo dunyoqarashlar to'qnashuvi bilan bog'liq psixologik zo'riqishdir. Katta avlod vakillari orasida "ota-ona har doim haq" degan an'anaviy qarash hanuz kuchli saqlanib qolgan bo'lsa, yoshlar globallashuv, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida mustaqil fikrlash va o'z hayot yo'lini tanlashga intilmoqda. Ushbu ikki yondashuv o'rtasida muvozanat ta'minlanmaganda, oilaviy munosabatlarda keskinlik yuzaga keladi va muloqot ko'proq buyruq, tanbeh hamda e'tirozlar darajasida qolib ketadi. Bu esa o'smirning ichki dunyosida ziddiyatlarni kuchaytiradi, o'z qadr-qimmatining pasayishi va tushunilmaslik hissining shakllanishiga olib keladi. Natijada o'smir o'z muammolarini oila bilan emas, balki tashqi muhit - tengdoshlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki ayrim hollarda nosog'lom ijtimoiy guruhlar bilan baham ko'rishga moyil bo'lib qoladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, yuqorida ko'rib chiqilgan to'rtta tarbiya uslubi o'smirning koping xulq-atvorini turlicha yo'nalishlarda shakllantiradi. Avtoritar tarbiya tashqi intizomni kuchaytiradi, biroq ko'p hollarda o'smirning muammolarga mustaqil va erkin yondashish imkoniyatini cheklaydi. Liberal tarbiya hissiy jihatdan erkinroq muhit yaratadi, ammo bu uslubda muammoni boshqarishga xizmat qiladigan mustaqillik va shaxsiy chegaralarni anglash har doim ham yetarli darajada shakllanmaydi. Aralash tarbiya esa eng noaniq holatni yuzaga keltiradi, chunki bunda o'smirda muammoli vaziyatlarga javob berishning barqaror va izchil tizimi to'liq shakllanmaydi. Demokratik tarbiya uslubi nisbatan eng maqbul va sog'lom muvozanatni ta'minlaydi, chunki bunday oilada o'smir nafaqat muammoni ko'ra oladi, balki uni anglash, his qilish va undan qochmasdan konstruktiv yo'l bilan hal etishga ham o'rganadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-104720>
2. Shoumarov G'.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A., Akramova F.A., Solihova G., Niyozmetova G. Oila psixologiyasi: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. – 2010. – B. 46.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: darslik. Pedagogik OTM talabalari uchun. – T., 2007. – B. 112.
4. Maxmudova Z. O'smirlarda stressli vaziyatlarda koping xulq-atvor strategiyalari namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Science and Education Scientific Journal. – 2022. – Vol. 3, Issue 3.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.